

INGLIZ TILIDA SPEAKING OSHIRISH USULLARI

Islomboyev Rustambek Umidjon o'gli

SamDChTI talabasi:

Ilmiy raxbarlari: Sh.O.Mamayoqubova

N.N. Zubaydova

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda ko'plab xorijiy tillar o'rganuvchilari yuzlanadigan asosiy muammolardan biri Speakingni (Gapirish) darajasini qanday qilib ravon ravishda chiqarish va qanaqa usullardan foydalanib, o'stirish va rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.*

kirish so'zlar. *Til imkoniyatlari, til kurslari, audiolar, sun'iy muhit, conversation club, og'zaki nutq, kundalik ehtiyoj, lingvistik kapital, ijodiy hamkorlik, ravon nutq uslubi, Shadowing uslubi, "native speaker"lar, tabiiy muhit.*

METHODS OF IMPROVING ENGLISH SPEAKING

Annotation. *In this article, one of the main problems faced by many foreign language learners today is how to fluently release the level of Speaking and what methods are used to grow and develop it.*

key words : *Language opportunities, languages courses, audio, artificial environment, conversation club, oral speech, daily needs, linguistic capital, creative cooperation, fluency, Shadowing style, "native speakers", natural environment.*

Bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan imkoniyat naqadar kengligi va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tarafdin til o'rganish borasidagi e'tibor naqadar ulkan ekanligi hech kimga sir emas shubhasiz. Dunyo bo'yicha ma'lumotlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizdan ortig'i 2 yoki undan ortiq tilda gaplasha oladilar. Globallashtirish sharoitida "lingvistik kapital" ya'ni aniqroq aytadigan bo'lsak, chet tillarini, xususan, ingliz tilini mukammal egallagan kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu o'z navbatida, xorijiy tillarda gaplashuvchilar sonining yildan-yilga oshib borayotganligidan darak beradi. Ushbu chet tillarini o'rganuvchilar duch keladigan asosiy muammolardan biri bu muayyan tilni yaxshi bilsa-da, ravon gapira olmaslik hisoblanadi. Aytaylik, siz ham bir kunda soatlab ingliz tilida maqolalar o'qishingiz, audiolar eshitishingiz yoki yangi

so'zlar yodlashingiz mumkin, lekin qanchalik harakat qilsangiz ham hech qanday o'sish, o'zgarish kuzatilmayaptimi?

Demak, aynan ushbu maqolada Speakingni rivojlantirish borasida va uni qanday usullardan foydalangan holda samarali oshirish haqida so'z yuritiladi. Deylik, siz yoki yaqin o'rtog'ingiz ingliz tilini kichik yoshligidanoq o'rganishni boshlagan-u, ammo, haliyam ushbu tilda dadil, ravon ravishda so'zlay olmaydi. Yoki ancha vaqtdan buyon til kurslariga qatnashsangiz ham, turli mavzularda matnlar yodlasangiz ham, natijasi yuqori emas. Ingliz tilida gapirish darajangizdan ko'ra 3-4 yoshli bola o'z ona tilida gapirgani yaxshiroq. Chunki u kundalik hayotida faqat shu tildan foydalanadi: ko'p gapiradi, ko'p eshitadi. Ammo siz o'zingiz aynan Speaking (Gapirish) uchun qancha vaqt sarflaysiz? Deyarli hech qancha?! Buning uchun Speakingni oshirishda qanday usullar mavjud?

Quyidagi uslublarni sanab o'tamiz:

- do'stlaringiz bilan faqat ingliz tilida so'zlashish
- conversation club larga azo bo'lish
- skype orqali ingliz tilida so'zlashadigan suhbatdosh topish
- ko'zguga qarab so'zlash
- turistlar bilan native speakerlar sifatida muloqot qilish
- shadowing uslubi

Tildan doimiy aloqa vositasi sifatida foydalaniladi va u kundalik so'zlashuvda verbal tarzda yuzaga keladi . Misol qilib oladigan bo'lsak, do'stlar bilan yozishmalar, yaqin insonlar bilan sms xabarlar va kunlik muloqot aynan ushbu tilda olib borilsa ancha samaralidir . Endi har bir uslublar haqida qisqacha to'xtalib o'tsak :

ENGLISH CONVERSATION CLUB - Hozirgi vaqtda deyarli har bir o'quv yurtlarida deysizmi, o'quv markazlarida deysizmi tilga doir ko'pgina klublar tashkil qilingan. Klub a'zolari orasida turli mavzularda muhokamali bahslar, suhbatlar qurish mumkin. Bunda ishtirok etish orqali o'rtaga qo'yilgan topic yuzasidan fikrlar bildirilish mumkin. Bu juda ham ajoyib imkoniyat!

SKYPE FOR ENGLISH - Bu ham samarali usullardan biri. Bunda turli xil millat vakillaridan do'stlar orttirish, exchange information holatida bo'lish bilan birga dunyoqarashni ham kengayturib borish imkon bo'ladi. Ushbu dasturga tashrif buyurib, yoshi, til bilish darajasiga qarab istalgan insonni tanlab, SKYPE orqali so'rovnoma jo'natish mumkin bo'ladi.

KO'ZGUGA QARAB SO'ZLASH - Agar internetdan unchalik ko'p foydalana olinmasa, unda bu usul juda ham keraklidir. Bunda ko'zguga qarab muayyan mavzu: xoh qiziqarli voqealar, xoh yoqtirgan mashg'ulot yokida kelajak rejalar haqida 5- 10 daqiqa davomida so'zlash mumkin .

SHADOWING - Tarjimasidan ko'rinib turibdiki, SHADOWING - soya degani. Ushbu uslubda native speakerlarning nutqlari aynan copy paste qilinadi ya'ni, ovoz toni, pronunciation hammasi bir xil shaklida takrorlanadi.

Bundan tashqari, ingliz tilini tabiiy muhitda o'zlashtirish haqida ham to'xtalib o'tamiz. Misol uchun, Daniel - 8-9 yoshlar atrofidagi, rus millatiga mansub, Norvegiya istiqomat qiluvchi bola . Maktabdan tashqarida u norveg va ingliz tillarida yozilgan afishalar, yil belgilariga duch keladi. Yoki do'konga, istirohat bog'lariga aylanganda ushbu tilda so'zlashuvchi turli kasb vakillari bilan gaplashadi. Eng asosiysi, fikr ifodalash jarayoni amaliyotda qo'llanadi, jonli muloqotda tajribadan o'tadi. Va bunda yana bir e'tiborli jihati shuki, muayyan fikrni ifodalashga shaxsiy tashabbus ko'rsatiladi .

Zaynura - 10-12 yashar qizcha, Samarqand viloyatining Samarqand shahrida yashaydi. Ularning maktabida ingliz tili 45 daqiqada davom etadi. Bundan tashqari, qizcha bu tilni ota - onasi xursand bo'lishi va o'qituvchisidan a'lo baholar olib, rag'bat eshitish maqsadida o'zlashtiradi va o'rganadi. Ushbu holatda u faqatgina cheklangan so'zlar resurslaridan foydalanadi va oddiy sodda gaplar tuza oladi. Bundan kelib chiqadiki, birinchidan, 1-vaziyatda cheklanmagan vaqt mavjud, ikkinchidan, jonli nutq muloqoti, uchinchidan, ingliz tilidagi muloqot aynan jonli ravishda sinab ko'riladi va bunda e'tibor, shaklga emas, mazmunga qaratiladi. 2-vaziyatda esa na vaqt yetarlicha, na bu tilda so'zlashuvchi kishilar jamoasi bor, barcha jarayonlar sun'iy muhitda o'zlashtirilyapti. Va eng achinarlisi, chet tilida muloqot qilishga ehtiyot ham, sabab ham yo'q! Cheklangan metodik qo'llanmalar!

Demak, ushbu usullardan samarali tarzda foydalanib, nafaqat Speaking darajasini oshirish, balki omma, auditoriya oldida dalil, ravon, to'xtalmasdan so'zlashish imkonini yaratadi .

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari 1999. – 182 p.(fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. –432 b.

2.Birdsong D., Bialystok E., Hakuta K. Second Language Acquisition and the Critical Period Hypothesis. – L.: Lawrence Erlbaum associates publishers,

3.Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006. – 196 p.

4. Ellis R. Principles of Instructed Language Learning. – Asian EFL Journal, 2005. – P. 10-26. Electron resource: [http://www.asian-efl-journal-Asian EFLJournal.TheEFL Professionals' Written Forum](http://www.asian-efl-journal-Asian-EFLJournal.TheEFL-Professionals'WrittenForum). Access date: 4.06.2017.

5. Sh.O.Mamatyoqubova. “Мотивация В Процессе Развития Педагогического Мастерства И Компетенции Преподавателя”. Scientific Approach to the Modern Education system. Confirence of Germany, 1 avgust 2023, 100 p

5.<https://www.hasanboy.uz>

6.<https://grantgo.uz/blog>

7.<https://cyberleninka.ru>